



## O‘ZBEK MILLIY INTERNET SEGMENTIDA SAYTLARNING YARATILISHI, FAOLIYATI VA OMMALASHISHI

**Boborajabov Ergash,**  
O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada internet jurnalistika yoki onlayn nashr – bu ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va jurnalistika tamoyillariga muvofiq tegishli funksiyalarini bajarishga qaratilgan veb-saytlar xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *jurnalistika, internet jurnalistika, vefsayt, ommaviy axborot vositalari, an'anaviy jurnalistika.*

**Абстракт.** В статье говорится об интернет-журналистике или сетевом издании, представляющем собой веб-сайт, зарегистрированный в качестве средства массовой информации и направленный на выполнение соответствующих функций в соответствии с принципами журналистики.


**Ключевые слова:** *журналистика, интернет-журналистика, сайт, СМИ, традиционная журналистика.*

**Abstract.** The article refers to internet journalism or online publication, which is a website registered as a mass media and aimed at performing relevant functions in accordance with the principles of journalism.

**Keywords:** *journalism, internet journalism, website, mass media, traditional journalism.*

Internet kundalik hayotimizning tobora muhim qismiga aylanib bormoqda. Ishonchimiz komilki, ko‘plab insonlar kundalik hayotida jismoniydan ko‘ra ekranlar orqali muloqot qilish uchun ko‘proq vaqt sarflashadi. Bir narsa aniq: ish, dam olish, o‘yin-kulgi va munosabatlarni o‘z ichiga olgan WORLD WIDE WEBning roli kundan kunga oshsa oshadiki, lekin yo‘qolmaydi. Eng muhim narsadan boshlaylik: Internetdan qancha odam foydalanadi? 2020-yilda 4,54 milliard faol foydalanuvchi, 4,18 milliard noyob mobil foydalanuvchi bo‘lgan. Dunyoda ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanuvchilar ro‘yxati 3,8 milliard kishiga yetdi va ularning deyarli har biri mobil qurilmalari orqali ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi – aniqrog‘i esa – 3,75 milliard kishi. Sayyoramizning hozirgi aholisi 8,0 milliard kishini tashkil qiladi, shundan yer aholisining 56 foizi (shu jumladan bolalar) faol internet foydalanuvchilari hisoblanishadi. Bugungi kunda har 10 kishidan 6 nafari internetga kirish imkoniga ega [1]!

Internetning paydo bo‘lishi va faoliyatga yo‘naltirilishi ortidan dunyo global o‘zgarishlar maydoniga aylandi, har bir yangilik va kashfiyotlarning tez suratlar bilan ommalashishi, teleradio va matbuotning mazkur tizimga integratsiya qilinishi ortidan katta hajmdagi axborotlar aylanmasi vujudga keldi.



**1-rasm. Dunyo miqyosida internetdan foydalanish**


Keling, buni o‘ylab ko‘raylik: dunyo aholisining o‘rtacha o‘sishi hozirda 1% atrofida, Internetga kirish darajasi esa yiliga 8,2% ni tashkil qiladi. Joriy ko‘rsatkichni 2017-yildagi 3,7 milliard foydalanuvchi bilan solishtiring. 2005-yilgacha sayyoramizda 1 milliarddan kam faol foydalanuvchi bo‘lgan, ammo bu ko‘rsatkichni ikki barobarga oshirib, 2 milliardga yetkazish uchun atigi 6 yil kerak bo‘ldi. An’anaga ko‘ra, Internetdan eng ko‘p foydalanadigan mintaqqa Osiyo hisoblanadi (axir u dunyodagi eng ko‘p aholi yashaydigan mintaqadir). 4,54 milliard internet foydalanuvchisidan 2,4 milliardga yaqini Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlarida yashaydi. Biroq, eng tez o‘sib borayotgan foydalanuvchilar guruhi Afrikada bo‘lib, o‘tgan yillarda raqamli jihatdan ancha orqada qolgan ushbu qit’ada har 10 nafar yangi foydalanuvchidan 5 nafari ro‘yxatdan o‘tgan [1].

Bu qadar katta auditoriya ehtiyojini qondirish uchun zarur ma’lumotlar bazasini muomalaga chiqarish, bu uchun esa son-sanoqsiz saytlar, sahifalar va boshqa tarqatish vositalari zarur edi. Aynan ana shu talab ortidan vujudga kelgan internet saytlari bugun mamlakatimiz internet dunyosida ham ming-minglab tashkil etildi va faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda 2016-yil uchinchi choragiga kelib davlat rahbarining o‘zgarishi va hukumatda olib borilgan oqilona islohotlar o‘z natijasini ko‘rsata boshladi. Raqamli jurnalistikaning unsurlarini o‘zida mujassam etgan yangiliklar saytlari va onlayn nashrlar 2016-yil oxiriga kelib anchayin erkin so‘z ayta boshladi. Buning misoli sifatida ularga qilinayotgan murojaatlar, tashriflar va kuzatishlar statistikasidagi dinamikaning ortishini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi sayt 1991-yilda ingliz fizigi Tim Berners - Li tomonidan yaratilgan. 2020-yildagi eng so‘nggi internet statistik ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 1,8



milliardga yaqin faol veb-saytlar mavjud va ularning soni har soniyada ortib bormoqda. Ajablanarlisi shundaki, hamma saytlarga ham odamlar tashrif buyurishmaydi. Hisobotlar shuni ko‘rsatadiki, internet-trafikning yarmidan ko‘pi robotlar tomonidan ishlab chiqariladi va bu ulush har yili ortib bormoqda [1]. Quyidagi diagrammada aynan veb-saytlarning yillar kesimida o‘sib borish holati tasvirlangan (2-rasm).



**2-rasm. Veb-saytlarning yillar kesimida o‘sib borish holati**


Bugun oddiygina Internet saytlaridagi “Sport” sahifasi ham imkon darajada professional yondashilib yuritiladi. Sababi saytning har bir sahifasini va undagi ma’lumotlarni behuda narsa bilan to‘ldirishdan qochish, berilayotgan ma’lumotlar va uning manbalaridagi aniqlik kuzatuvchilar e’tiboridan chetda qolmayapti. Hozir saytlarga tashrif buyuruvchi har bir inson, ayniqsa u qaysidir jamoa yoki sportchining ishqibози bo‘ladigan bo‘lsa ularni aldab ham, yolg‘on ma’lumotlar bilan ovuntirib ham bo‘lmaydi. Negaki, hozirgi avlod vakillari o‘ta sinchkov, har qanday ma’lumotni alternativ manbalaridan tekshiruvchi, ochiq interenet manbalaridan foydalanishni yaxshi tushunadigan, o‘zi uchun eng zarur ma’lumotlarni oladigan “Alfa” avlod vakillari, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi Internet ommalashganiga o‘ttiz yil bo‘layotganini hisobga olsak, bugungi kunda oxirgi o‘ttiz yillik avlod vakillari aynan Internet ichida tug‘ildi va u bilan yashamoqda. Shu bois, beriladigan har qanday ma’lumotlarni aniq manba va vositalar asosida taklif etish, uni yengil



xazm bo‘ladigan variantda taqdim etish, kuzatuvchilar reaksiyasini e’tibor markazida tutish, ular bildiradigan har qanday munosabatga tezkorlik va holislik bilan javob berib borish, veb-sayt obro‘sini oshirish bilan bir qatorda uning kuzatuvchilari sonini ham ortishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, foydalanuvchilarning mazkur saytlarni oson topishi, o‘ziga kerakli vaqtida va makonda unga kirish uchun zarur qulayliklar yaratish, har bir saytni Internetda mavjud eng tezkor qidiruv tizimlariga integratsiya qilish va ulardan foydalanishda kuzatuvchilar madaniyatini shakllantirish ham eng muhim vosita hisoblanadi.

Biz har kuni ish, dam olish, o‘yin-kulgi va o‘zimizni rivojlantirish uchun ma’lumotlarga kirish uchun qidiruv tizimlaridan foydalanamiz. Agar siz taxmin qilmagan bo‘lsangiz, Google qidiruv tizimlarining so‘zsiz yetakchisi bo‘lib, global qidiruv tizimlari bozorining 73 foizini egallaydi. Bozor ulushining qolgan qismi Bing, Baidu, Yahoo!, DuckDuckGo, Yandex va Ask o‘rtasida taqsimlanadi. Google har kuni 3,5 milliarddan ortiq so‘rovni qayta ishlaydi, bu soniyada taxminan 40 000 so‘rovga teng. Bu kompaniya to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlaysen reklamadan 134 milliard dollardan ortiq daromad oladi [2]. Quyidagi jadvalda 2019-yil yanvar oyidan 2020-yil yanvar oyigacha dunyo bo‘yicha qidiruv saytlariga qilingan murojaatlar va ularning statistikasi aks etgan (3-rasm).

Search Engine Market Share



**3-rasm. Dunyo bo‘yicha qidiruv saytlariga qilingan murojaatlar va ularning statistikasi**

Tadqiqotimiz davomida mamlakatimizdagi top-10 talikka kiruvchi yangiliklar saytlariga bir kunda, bir haftada va bir oy davomida tashrif buyuruvchilar va ko‘rishlar soni tahlilga tortildi. Tahlil jarayonida top-10 talikdagi saytlarning o‘rnini almashib turishi mumkinligini inobatga olib aynan mazkur kunlar davomida eng yuqori ko‘rsatkichda turgan saytlar tahlil qilindi. Bu tahlillar 2022-yil dekabr oyi va 2023-yil yanvar oyi davomida amalga oshirilganligini alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbekistondagi yangiliklar veb-saytlari reytingida birinchi top-10 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir kunda tashrif buyuruvchilar va ko‘rishlar soni quyidagicha [3] (1-dadval):



| O‘rin | Resurs nomi   | Tashrif<br>buyuruvchilar | Ko‘rishlar       |
|-------|---|--------------------------|------------------|
| 1     | <a href="#">Daryo — Новости Узбекистана и мира</a>                | 299847                   | 1708986          |
| 2     | <a href="#">Qalampir – Правда бывает горькой</a>                  | 164517                   | 429370           |
| 3     | <a href="#">Aniq.uz – только самые точные новости!</a>            | 55369                    | 139880           |
| 4     | <a href="#">Nuz.uz — Независимая газета «Новости Узбекистана»</a> | 40514                    | 55764            |
| 5     | <a href="#">Xabar.uz — Информационно-аналитический портал</a>     | 33785                    | 74144            |
| 6     | <a href="#">«Даракчи» – Информационно-развлекательный портал</a>  | 19087                    | 31092            |
| 7     | <a href="#">Sputnik Узбекистан</a>                                | 16768                    | 45962            |
| 8     | <a href="#">Газета «Халқ сўзи»</a>                                | 12826                    | 17600            |
| 9     | <a href="#">Solanews.uz</a>                                       | 11296                    | 18321            |
| 10    | <a href="#">Azon.uz – новостной духовный портал</a>               | 10251                    | 16709            |
|       |   | <b>664 260</b>           | <b>2 537 828</b> |

**1-jadval. O‘zbekistondagi yangiliklar veb-saytlari reytingida birinchi top-10 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir kunda tashrif buyuruvchilar va ko‘rishlar soni**

O‘zbekistondagi yangiliklar veb-saytlari reytingida birinchi top-10 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir haftada tashrif buyuruvchilar va ko‘rishlar soni quyidagicha [4] (2-jadval):

| O‘ri<br>n | Resurs nomi   | Tashrif<br>buyuruvchilar | Ko‘rishlar        |
|-----------|---|--------------------------|-------------------|
| 1         | <a href="#">Daryo — Ўзбекистон ва жаҳон янгиликлари</a>   | 1 702 426                | 11 447 861        |
| 2         | <a href="#">Qalampir - Haqiqat achchiq bo‘ladi</a>        | 1 126 857                | 3 317 342         |
| 3         | <a href="#">Aniq.uz - qiziq, qisqa va aniq xabarlar!</a>  | 215 318                  | 708 248           |
| 4         | <a href="#">Ўзбекистон Янгиликлари</a>                    | 203 378                  | 350 605           |
| 5         | <a href="#">«Xabar.uz» axborot-tahliliy portalı</a>       | 179 556                  | 449 892           |
| 6         | <a href="#">Axborot-ko‘ngilochar "Darakchi" portali</a>   | 99 222                   | 183 133           |
| 7         | <a href="#">Sputnik Ўзбекистон</a>                        | 96 895                   | 281 386           |
| 8         | <a href="#">«Халқ сўзи» газетаси</a>                      | 72 687                   | 102 447           |
| 9         | <a href="#">muallimlar.uz</a>                             | 70 840                   | 106 109           |
| 10        | <a href="#">ЎзА - Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги</a> | 61 541                   | 157 662           |
|           |   | <b>Umumiy</b>            | <b>3 828 720</b>  |
|           |   |                          | <b>17 104 685</b> |

**2-jadval. O‘zbekistondagi yangiliklar veb-saytlari reytingida birinchi top-10 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir haftada tashrif buyuruvchilar va ko‘rishlar soni**



O‘zbekistondagi yangiliklar veb-saytlari reytingida birinchi top-10 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir oy davomida tashrif buyuruvchilar va ko‘rishlar soni quyidagicha [5] (3-jadval):

| O‘rin  | Resurs nomi   | Tashrif<br>buyuruvchilar | Ko‘rishlar |
|--------|---|--------------------------|------------|
| 1      | <a href="#">Daryo — Ўзбекистон ва жаҳон янгиликлари</a>   | 3 957 076                | 26 600 577 |
| 2      | <a href="#">Qalampir - Haqiqat achchiq bo‘ladi</a>  | 2 201 997                | 7 064 885  |
| 3      | <a href="#">«Xabar.uz» axborot-tahliliy portalı</a>   | 397 816                  | 1 001 331  |
| 4      | <a href="#">Aniq.uz - qiziq, qisqa va aniq xabarlar!</a>  | 367 772                  | 1 330 950  |
| 5      | <a href="#">Ўзбекистон Янгиликлари</a>  | 299 976                  | 465 699    |
| 6      | <a href="#">Axborot-ko‘ngilochar "Darakchi" portalı</a>   | 247 109                  | 424 510    |
| 7      | <a href="#">Sputnik Ўзбекистон</a>  | 228 681                  | 645 702    |
| 8      | <a href="#">«Халқ сўзи» газетаси</a>  | 211 487                  | 312 340    |
| 9      | <a href="#">Bugun yangiliklar: O‘zbekiston va dunyodagi eng so‘nggi yangiliklar — Solanews.uz</a> | 193 975                  | 451 198    |
| 10     | <a href="#">Azon.uz - axborot-tahliliy portal</a>   | 156 987                  | 276 337    |
| Umumiy |   | 8 262 876                | 38 573 353 |

3-jadval. O‘zbekistondagi yangiliklar veb-saytlari reytingida birinchi top-10 talikka kiruvchi veb-saytlarga bir oyda tashrif buyuruvchilar va ko‘rishlar soni

Tadqiqotimizda mazkur yo‘nalishdagi tahlillar www.uz tizimida mavjud statistikaga asoslanib o‘rganildi. O‘zbekistonda www.uz tizimi ochiq holda barcha saytlar statistikasini yuritadi. Shu orqali resurslar ommabopligi baholanadi. Har bir saytda www.uz tizimining hisoblagichi o‘rnataladi va ularning reytingi shakllantiriladi. Ushbu tahlil natijalariga ko‘ra, shuni aniqladikki, mamlakatimizda birgina yangiliklar saytlarining top-10 taligiga kiruvchi saytlarga bir oy davomida tashrif buyuruvchilari soni 8 262 876 nafarni, sahifalar bo‘ylab ko‘rishlar soni esa 38 573 353 marotabani tashkil etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda aynan yangiliklar saytlarining soni 184 tani tashkil etishini, biz faqat reytingdagi birinchi top-10 talikdagi saytlarnigina tahlilga tortganimizni inobatga oladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkichlar yanada ortishi muqarrar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://sdvv.ru/articles/elektronnaya-kommertsya/statistika-interneta-2020> 23.01.2023.
2. <https://sdvv.ru/articles/elektronnaya-kommertsya/statistika-interneta-2020> 24.01.2023.
3. [https://www.uz/uz?cat\\_id=359](https://www.uz/uz?cat_id=359) 21.01.2023.



4. [https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings?cat\\_id=359&cat\\_id=359&VisitOrRating%5Bp](https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings?cat_id=359&cat_id=359&VisitOrRating%5Bp) 21.01.2023.
5. <https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings?VisitorRating%5Bperiod%5D=monthly&VisitorRating> 21.01.2023.